



## QORAQALPOQ O'TOVLARNI TUZILISHI VA MILLIY BOSH KIYIMINING SHAKLLANISHIDAGI AHAMIYATI

**Raxmatullayeva Nigoraxon Nizomiddinovna,**  
**Sobirov Sardor Alisher o'g'li,**  
*O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik  
tarixi davlat muzeyi, Amaliy san'at va  
etnografiya ilmiy bo'limi mudiri ilmiy xodim*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.19606703>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Markaziy Osiyoda yashovchi qozoq va qoraqalpoq xalqlari yashash uyi hisoblangan o'tovlar haqida ma'lumot aks etgan. Shuningdek o'tovlarning mavjud turlari va ularning qoraqalpoq milliy bosh kiyimi shakllanishida o'ziga xos o'rni tasvirlangan.

**Kalit so'zlar:** O'tov, o'choq, kerege, uyk (o'qlar), shangrak, tuirlik va tunduk, to'q kigiz, qoraqalpoq do'ppilari.

**Annotation.** This article provides information about yurts, which are the traditional dwellings of the Kazakh and Karakalpak peoples living in Central Asia. It also describes the existing types of yurts and their distinctive role in shaping the form of the Karakalpak national headdress.

**Keywords:** Yurt, hearth, kerege (lattice wall framework of the yurt), uuk (roof poles), shanyrak (circular crown/top opening), tuyrlyk (side covering), tunduk (cover of the shanyrak), dense felt.

**Kirish.** Maqolani tayyorlash jarayonida turli xil metodlar tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, induksiya va retrospektiv qo'llash metodlaridan foydalanildi. O'tov - ko'chmanchilar sivilizatsiyasining yashash uyi bo'lib, ular odamlarni turli xil noqulay ob – havodan saqlagan. Ko'chmanchilar hayoti asosan chorvachilik bilan shug'ullanganligi sababli doimo ko'chib yashashgan. Chorva hayvonlar boqish uchun yaylov yerlar kerak bo'lgan. Yaylov yerlar, dasht va adirlarda o'tovlar o'rnatilgan. Chidamli va zamonaviy o'tov qurish katta mahorat va tajriba talab qilgan. O'tov muqaddas va buyuk sirlar to'plangan joydir. U nafaqat ko'chmanchilar uchun yashash joy, shuningdek ma'naviy bilimlarni majmuasi hisoblangan. Chunki o'tov tuzilishi jihatdan qismlari bir – biriga o'zaro uyg'unlashgan. Uning markaziy qismda o'choq joylashgan. Ayollar ko'p vaqtini o'choqda taom tayyorlab o'tkazganligi sababli ular “o'choqboshi,” “oila boshlig'i,” “oila” boshi bo'lgan, erkak esa uy egasi bo'lgan [2, b- 58-59].

**Asosiy.** Maqolani tayyorlash jarayonida turli xil metodlar: tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, induksiya va retrospektiv qo'llash metodlaridan foydalanildi. O'tov – ko'chmanchilar sivilizatsiyasining yashash uyi bo'lib, ular odamlarni turli xil noqulay ob-havodan saqlagan. Ko'chmanchilar hayoti asosan chorvachilik bilan shug'ullanganligi sababli doimo ko'chib yashashgan. Chorva



hayvonlari boqish uchun yaylov yerlar kerak edi. Yaylov yerlar esa dasht va adirlarda o'tov o'rnatishgan. Chidamli va zamonaviy o'tov qurish katta mahorat va tajriba talab qiladi. O'tov muqaddas va buyuk sirlar to'plangan joydir. U nafaqat ko'chmanchilar uchun yashash joyi, shuningdek ma'naviy bilimlarni majmuasi hisoblangan. Shu sababli o'tov tuzilishi detallab qismlar bir-biriga uyg'unlashgan. Uning markaziy qismida o'choq joylashgan. Ko'chmanchilar hayoti aynan o'tovdan boshlanadi. O'choqda ayollar ko'p vaqt sarflaganligi sababli ayollar “o'choqboshi”, erkak esa uy egasi bo'lgan ya'ni “oila boshlig'I”, bo'lgan. O'tov ko'chmanchilar uchun oila a'zolarini birlashtiruvchi olov muqaddas sifatida ko'rsatilgan. Ya'ni: o'choqboshi ayol, uy egasi uning eri, o'choq - oila a'zolarini birlashtiruvchi olov muqaddas olov sifatida talqin etiladi.

Vazifasiga ko'ra o'tovni 3 asosiy turlari mavjud.

1. Uy – joyli o'tov
2. Marosimlar uchun
3. Chodirli

Bulardan tashqari, taom tayyorlash uchun maxsus o'tov mavjud bo'lgan. Ular omborxonalar vazifasini ham bajargan. Migratsiya jarayonida yo'l bo'ylab ko'chmanchilar kichik hajmdagi qisqa muddatli o'tovlar qurishgan. Qipchoqlarning o'tovlari boshqa ko'chmanchilardagi o'tovlardan murakkabligi va mukammalligi bilan farq qilgan. Ularni yig'ma panjarali va namatli bino tashkil qilgan. Bu o'tovlarda 8 tagacha odam yashashi mumkin edi [3., b.113]. U yerda oila – erkak, ayol va ularning bolalari yashaganlar. Qachonki ularni o'g'il farzandlari oila qursa, alohida o'tovga ko'chirilgan. Shunisi e'tiborga loyiqki, badavlat ko'chmanchilar agar oila soni ko'paysa, uylarning hajmini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lganlar. Bu asosan “kerege” nomli panjarali devorlar yordamida amalga oshirilgan. Har bir ko'chmanchi xalqlarni o'tovlari yashash joyi va tabiati asosida bir-biridan farq qilgan. O'tovlarning ichki qismi yog'och panjaralardan qurilgan va bir necha qismlarga bo'lingan. Uni terish uzoq vaqt talab etgan. Ammo uni buzish qisqa vaqtda amalga oshirilgan. Har qismiga o'rnatiladigan yog'ochning o'ziga xos nomi va vazifasi mavjud bo'lgan. O'tov ichki qismini issiq hamda mo'tadil saqlash uchun jun, gilam va kigiz bilan qoplangan. Tashqi qismini esa turli xil ob-havodan himoyalash uchun qoplamalar bilan yopilgan.

**Kerege** – o'tovning pastki devorini tashkil qiluvchi egri shakldagi yog'och struktura. Uning asosiy vazifasi o'tovga devor hosil qiladi, tom qismini og'irligini ko'tarib turadi. Inson tabiat bilan uyg'unlikda yashash mumkinligini aks ettiradi [2., b. 60].



**Uyk (o‘qlar)** – tomni ko‘tarib turuvchi yoyma ustun. O‘qlar yer va osmonni o‘zaro bog‘lovchi muhim unsur sifatida talqin qilinib, koinotda muvozanat saqlovchi ramzi hisoblanadi. Uning yuqori aylana qismi shanyrak deb ataladi va u osmon gumbazini ifodalab, olamning markazi va oilaviy birlik timsoli sifatida talqin qilinadi. O‘tov dumaloq shaklda bo‘lish sababi – vaqtning aylanishi, hayotning uzluksizligi va tabiat muvozanatini anglatadi. Uning asosiy vazifasi barcha o‘qlarni birlashtirib, yorug‘lik va tutun chiqish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, o‘tovni markazini tutib turuvchi tayanch hisoblanadi.

**Tuirlik va tunduk** – o‘tovning devorlarni yopish uchun foydalaniladigan kigiz qoplama. Ular odatda 3-4 bo‘lakdan tashkil topgan. Tunduk oilani turli xil ob-havolarda shamol, yomg‘irdan va ma‘naviy jihatdan yovuz kuchlardan saqlagan. Shuning uchun himoya va muhofaza ramzi sifatida ishonilgan. Qozoqlar qadimgi zamonlarda oq uy nomli o‘tovlarni yuqori qadrlagan. Odatda oq o‘tovlarda 6 ta kerege bo‘lgan. Ba‘zan esa 12 ta keregedan iborat bo‘lgan [2, b. 62].

O‘zbekiston hududining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Surxondaryo va boshqa ko‘plab viloyatlarida qadimgi davrdan ko‘chmanchi xalqlar mavjud bo‘lib, hatto hozirgacha zamonaviy uylar qurilishiga qaramay o‘tovlarda yashaydilar. Qoraqalpoqlar, qozoqlar kabi qadimdan to hozirgi kungacha bir necha turdagi o‘tovlarda yashab kelishadi. Yoz faslida qoraqalpoqlar o‘tovlarni daraxtlar soyasi, suv havzalari va ariqlar yaqiniga o‘rnatishadi. Salqin saqlash uchun kirish qismini namat bilan yopishadi. Qish oylarida esa taxta uylar yoniga o‘tov o‘rnatiladi.

Shuningdek, o‘tovlarning ichki va tashqi qismini kigiz, gilam, qoraqalpoq milliy kashtachilik namunalari bilan bezash orqali qoraqalpoq o‘ziga xos an‘anaviy bezak uslubini yaratdilar. O‘tovning ustki tuzilishi to‘qilgan tasma va lentalar bilan mustahkamlangan matolar tashkil qilgan. Ushbu lentalar ustki qismidagi bezak elementlari bilan jim – jimador uyg‘unlikka erishilgan. O‘tovning gumbazi ostida mayda popukchalar ilib qo‘yilgan va ular rang-barang ipak yoki jun tolalardan tayyorlangan. O‘tov ichki qismidagi har bir popukcha oila a‘zolaridan birini ramziy tarzda ifodalaydi. Shu bois o‘tovga kirgan kishi ushbu popukchalar orqali oilada nechta erkak va ayol borligini, shuningdek bolalar orasida o‘g‘il va qizlar sonini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘lgan.

O‘tovning devori va tom qismi keng oq lenta bilan o‘raladi, shundan keyingina tomi qalin kigiz (kiyiz), devorlari (shiy) esa bo‘yra bilan o‘raladi. Qadim zamonlardan beri uylar Qoraqalpoqlarning an‘anaviy o‘tovi yoki qora uylarning kirish qismi faqat janub yoki janubiy sharqiy tomonida joylashgan.

Asosiy sabablari:



\* Qoraqalpog‘iston hududida sovuq shamollar asosan shimoldan esadi. Kirishni janubiga joylashtirish Shimoliy shamollardan himoya qilish uchun xizmat qiladi.

☀ Ertalab quyosh chiqqanda nurlarini to‘g‘ri o‘tov ichiga tushishini ta‘minlaydi va o‘tovni isitadi.

□ An‘anaviy kosmologik qarashlar — turkiy xalqlarda kirish qismini ma‘lum tomonga qaratish muqaddas va ramziy ahamiyatga ega bo‘lgan. Farqli ravishda Qozoq o‘tovlarining eshiklari har doim sharqqa qaratilgan. Bu qadimda Tangri (Ko‘k Tangri-turkiy xalqlar xudosi) kultidan qolgan an‘anadir. Uy ichida esa o‘tov shaniragidan tushayotgan quyosh nurlarining yo‘nalishiga qarab vaqtni aniq belgilashgan.

O‘tovlarni shakli va tuzilishi nafaqat kundalik hayotga kuchli ta‘sir ko‘rsatgan, balki milliy liboslarning muhim qismi bo‘lgan qoraqalpoq do‘ppilarida ham aks etgan. Erkak va ayollar do‘ppilarining shakli va tuzilishi o‘xshash bo‘lgan [1., b-434]. Ammo ularda tasvirlangan ranglar va shakllar jihatidan farq qilgan. Qoraqalpoq erkak va ayollari bir-biridan ajralib turadigan do‘ppilarni kiyishgan.

Qoraqalpoq milliy do‘ppilari qoraqalpoq tilida nomlanishi biroz boshqacha bo‘lib, ularni “tahya” deb nom berilgan. Qoraqalpoq an‘anaviy bosh kiyimlari orasida keng tarqalgan dumaloq shakldagi tahyalardir. Ular odatda qizil va qora rangli baxmal, barqut yoki kigiz kabi matolardan tayyorlangan hamda milliy naqshlar bilan bezatilgan. Qora rangli do‘ppilar bejizga qoraqalpoq xalqi orasida mashhur emas. Bu “qoraqalpoq” etnoginezi ham aynan shu ma‘nodan kelib chiqqan. “Qora” so‘zi qora rangni ifodalaydi, “qalpoq” esa uchli bosh kiyimni anglatadi. Shu tariqa mazkur atama butun bir xalq nomi sifatida shakllangan.

Do‘ppilarning birinchi o‘ziga xos belgisi – tashqi bezak elementidir. Ayollar do‘ppilarining yon tomonida odatda hajmli popuk (pompon) mavjud bo‘ladi. Bu bezak unsuri ayollar bosh kiyimining muhim ajralib turuvchi xususiyatlaridan biri hisoblanadi.

Ikkinchi belgisi – undagi naqshlarning shakliy tuzilishidir. Bir xil turdagi ornament turli ko‘rinishda tasvirlanishi mumkin: yumaloq chiziqlar yoki o‘tkir burchakli shakllar orqali. Ayollar do‘ppilarida odatda yumaloq, silliq chiziqli naqshlar qo‘llaniladi. Erkaklar do‘ppilarida esa aksincha, siniq va o‘tkir burchakli chiziqlardan tashkil topgan ornamentlar ustunlik qiladi. Ayollar do‘ppilarni kiygan inson haqida to‘liq ma‘lumot bergan. Agar popuk do‘ppining chap tomonida bo‘lsa, bu erda hali turmushga chiqmagan qiz borligini bildiradi, ya‘ni tanishish va u bilan turmushga chiqish mumkin. Agar popuk o‘ng tomonida bo‘lsa, demak bu yosh ayol turmush



qurgan va erkaklardan e'tibor ko'rsatish qoidaga zid hisoblanadi. Bolalar do'ppilarida popuk tepasida joylashgan bo'ladi. Keksa yoshdagi odamlar dumaloq oq do'ppilarni kiyishardi. Shu tariqa, popukning joylashuvi qoraqalpoq do'ppilarida ijtimoiy va madaniy ma'noni ifodalashning muhim vositasi sifatida ishlatiladi. Do'ppilarning tashqi shakliga sinchiklab nazar tashlasak, unda qadimiy o'tovning timsoli ko'zga tashlanadi. Bu o'xshashlik tasodif emas. Unda qoraqalpoq xalqining teran dunyoqarashi, ramziy tafakkuri va koinot haqidagi azaliy tasavvurlari yashiringan. Qoraqalpoq milliy do'ppilari qoraqalpoq tilida nomlanishi biroz boshqacha bo'lib, ularni “tahya” deb nom berilgan. Qoraqalpoq an'anaviy bosh kiyimlari orasida keng tarqalgan dumaloq shakldagi tahyalardir. Ular odatda qizil va qora rangli baxmal, barqut yoki kigiz kabi matolardan tayyorlangan hamda milliy naqshlar bilan bezatilgan. Qora rangli do'ppilar bejizga qoraqalpoq xalqi orasida mashhur emas. Bu “qoraqalpoq” etnoginezi ham aynan shu ma'nodan kelib chiqqan. “Qora” so'zi qora rangni ifodalaydi, “qalpoq” esa uchli bosh kiyimni anglatadi. Shu tariqa mazkur atama butun bir xalq nomi sifatida shakllangan.

Qoraqalpoq o'tovi nafaqat oddiy boshpana, balki butun borliqning mikrokosmosi sifatida talqin qilinadi. Uning tepasidagi shanyrak osmon gumbazi, markazidagi o'choq esa hayot alangasining ramzi sifatida ko'riladi, shu makonda inson dunyoga keladi, ulg'ayadi va umrining oxirigacha yashaydi. Shu bilan birga, qoraqalpoq do'ppilari ham ko'pincha dumaloq, gumbazsimon shaklda tikilishi bu esa inson boshida “kichik olam” qad rostlagandek tasavvur uyg'otadi. Ushbu kichik olam tafakkur, ong va idrok markazi sifatida talqin qilinadi, o'tov esa hayot va yashash manbai bo'lib xizmat qiladi. O'tov va do'ppi shakllari inson boshining anatomik ahamiyati bilan uyg'unlashadi, chunki miya butun vujud harakatini, sezgilar va ichki organlar faoliyatini boshqaradi. Shu sababli, qoraqalpoq do'ppisi inson boshini sovuq va issiqdan, yovuz kuchlar va ko'z tegishidan himoya qiluvchi muqaddas timsol sifatida qabul qilinadi va koinot ramzi sifatida talqin qilinadi.

**Xulosa.** O'tov ko'chmanchi dunyosini aks etuvchi eng muhim ramziy uylardir. Ular ko'chmanchi xalqlar ma'naviy, mafkuraviy, koinot va yerni bog'lovchi muqaddas joy sifatida qadirlangan. Ammo O'tovlarni ko'chmanchi bo'lmagan shaxslar va tashkilotlar tomonidan yo'l bo'ylarida va sayyohlar ko'p tashrif buyuradigan hududlarda qurish madaniy jihatdan qoraqalpoq hamda qozoq xalqlarning madaniyatini ochib bersada, aslida bu xalqlarining madaniyatiga bir qator salbiy holat olib kelishi mumkin. Avvalo, O'tovlar aslida ko'chmanchi kundalik turmush tarzi, ijtimoiy tuzilma va an'anaviy bilimlarni aks etuvchi ramzidir. Agar



O‘tov faqat turistik obyekt sifatida foydalanilsa ularning haqiqiy mazmuni buziladi va oddiy “dekoratsiya”ga aylanib qoladi.

O‘tovlarni xatto qurilish jarayonida buyurtmachilarning talabi asosida soddalashtiriladi yoki zamonaviy qurilmalar qo‘shib o‘zgartiriladi. Natijada, an’anaviy qurilish texnikasi, materiallar hamda bezaklar berish to‘liq saqlanmaydi. Bu esa qoraqalpoq va qozoq xalqlarning milliy merosining asl ko‘rinishini asta – sekin yo‘qolishiga olib keladi.

Yana bir tomondan mahalliy aholining roli kamayib ketishi mumkin. Agar o‘tovlar mahalliy hunarmandlar yoki qoraqalpoq ustalari tomonidan emas, balki tashqi tashkilotlar tomonidan qurilsa, unda milliy hunarmandchilik an‘analari rivojlanmaydi, balki chetga suriladi. Bu esa bilim va tajribaning avloddan-avlodga o‘tishiga salbiy ta’sir qiladi. Shuning uchun birinchi navbatda O‘tovlar ma’naviy qiymatini saqlash uchun chora tadbirlarini ko‘rish lozim.

O‘tovlar tuzilishi jihatdan bir nechta muhim qismlardan iborat: kerege, uyk (o‘qlar), shanyrak, tuirlik va tunduk kabi qism tashkil etadi. Shuningdek shakliy tuzilish jihatdan qoraqalpoq boy kiyimlarni shakllanishida ham sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. O‘tov qoraqalpoq uchun alohida dunyo tashkil qilsa va shu dunyo oilani ballo – qazolardan va turli xil sharoitdan saqlagan. Qoraqalpoq milliy do‘ppilari o‘tovlar kabi inson boshini himoyachi vazifasini bajaradi.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Barotova.S., Do‘ppi Turlari. International Journal of Multidisciplinary Research ISSN: 3060-4745 IF(Impact Factor)10.41 / 2024 Volume 2, Issue 5/. B – 434.
2. Allayarov. K. O., Residential Yurts Of The Ancient Nomads Of Central Asia And The Use Of Yurts In Tourism. The American Journal of Engineering and Technology (ISSN – 2689-0984) Published: January 31, 2021 | Pages: 58-64
3. Demessinova.L.M, Sayfulina.F.S., Kinaci.C Nomads yurt as an archetype. P 113- 114/
4. <https://uzbekistan.travel/uz/o/yurt-kochmanchi-madaniyat-makonining-namunasi/>
5. <https://iqmena.livejournal.com/257684.html>